

**SOVET HOKIMIYATINING XOTIN QIZLAR MASALASIDAGI
ZIDDIYATLI SIYOSATI. XOTIN-QIZLARNI IJTIMOIIY-SIYOSIIY
HAYOTGA JALB ETISHDAGI MUAMMOLAR**

Rahmonova Gulchehra Toshniyoz qizi

*Guliston davlat universiteti psixologiya va ijtimoiy fanlarr fakulteti tarix
yo'nalishi 2-kurs talabasi*

Anatatsiya: Mazkur maqolada Sovet hokimiyatining xotin-qizlar masalasidagi ziddiyatli siyosati hamda ularni ijtimoiy-siyosiy hayotga jalb etish jarayonida yuzaga kelgan muammolar tahlil etiladi. Ushbu maqolida XX asrning 20–30-yillarida Sovet tuzumining “ayollarni ozod etish” siyosati tashviqot darajasida amalga oshirilgan bo‘lsa-da, amalda ko‘plab ijtimoiy, madaniy va milliy to‘siqlarga duch kelganligi ilmiy asosda yoritiladi. Xususan, musulmon Sharqi hududlarida, jumladan, O‘zbekiston misolida xotin-qizlarning ijtimoiy faolligini oshirish, savodsizlikni tugatish, mehnat va siyosiy hayotda ishtirokini kengaytirish borasidagi dasturlar mohiyatan qarama-qarshi natijalarni keltirib chiqargani ko‘rsatib o‘tiladi. Maqolada davlat siyosatining nazariy maqsadlari bilan amaliy natijalari o‘rtasidagi tafovut, ayollar huquqlarining real ta‘minlanish darajasi hamda bu jarayonning jamiyat hayotiga ta‘siri tarixiy tahlil asosida yoritilgan. Tadqiqot natijalari Sovet davrida gender siyosati masalasiga yangicha tarixiy nuqtai nazardan yondashishga imkon yaratadi.

Kalit so‘zlar: Sovet hokimiyati, xotin-qizlar masalasi, ijtimoiy-siyosiy hayot, gender tenglik, ma‘rifatparvarlik, ozodlik harakati, O‘zbekiston tarixi, ijtimoiy islohotlar, xotinqizlar emansipatsiyasi.

Kirish: Insoniyat tarixida xotin-qizlarga munosabat masalasi doimo o‘ziga xos murakkab muammolardan biri bo‘lib kelgan. Sovet hukumati va kommunistik partiya XX asr boshlarida ushbu ijtimoiy-siyosiy masalani siyosiy va iqtisodiy manfaatlardan kelib chiqib keskin hal qilish yo‘lidan bordi. Oktabr davlat to‘ntarishidan so‘ng, mintaqadagi xalq xo‘jaligi va madaniy sohalardagi muammolarning hal qilinishi ko‘p jihatdan xotin-qizlar emansipatsiyasi darajasiga bog‘liq edi. Shuning uchun ham, sovet hukumati siyosatining amaliyotchilari xotin-

qizlarni ijtimoiy-siyosiy, iqtisodiy va madaniy jarayonlarga jalb qilishning eng ratsional usullaridan foydalanishdi. Ma'lumki, sovetlar tomonidan ko'hna tarix va boy madaniyatga ega, ma'naviy jihatdan yuksak bo'lgan shijoatli xalqni o'ziga batamom bo'ysundirish, uni qaramlikda, ma'naviy qullikda asrash, uning modiy va ma'naviy boyliklarini talon taroj qilish uchun o'lkada o'ziga xos ayyorona siyosat olib borildi. Sovet tuzumining xotin-qizlarga nisbatan yurgizgan siyosati o'z mohiyatiga ko'ra, ikki tomonlama xarakterga ega bo'lib, mintaqadagi xalqlarni butunlay qaram qilib olish maqsadida ularning an'alariga, milliy, diniy, tarixiy va madaniy qadriyatlariga qarshi kurashish uchun ayollarni «tutqunlikdan ozod qilish», «zamonaviylashtirish» shiori ostida milliy va ma'naviy qadriyatlar kamsitilgan, diniy e'tiqodidan ajratish, tili va tarixidan judo qilish maqsadida madaniy merosni inkor qilish siyosati olib borilgan. Shu bilan birga, xotin-qizlarning siyosiy va huquqiy ongini cheklash, o'z erki va ozodligi uchun kurashish g'oyalaridan chalg'itish, ularga xos bo'lgan isyonkorlik, jangovarlik, mustaqillik uchun kurash tuyg'ularini batamom so'ndirish ishlari ularning diqqat markazida turgan.

Ikkinchidan esa, mintaqada ishchi kuchi yetishmasligi tufayli xotin-qizlar mehnatidan xalq xo'jaligi rivojini ta'minlovchi mehnat resursi, ayniqsa arzon ishchi kuchi sifatida foydalanish va shu orqali O'zbekistonning tabiiy boyliklaridan unumli foydalanishga harakat qilindi. Sovetlar o'zlarining g'arazli maqsadlarini «tenglik g'oyasi» niqobi ostida targ'ib qilib, butun dunyoga tenghuqukdilikni ta'minlashda kommunistik tajribaning «yagona» ekanligini namoyish qilishga urinishdi. Shuningdek, asr boshlariga kelib, bir tomondan, ijtimoiy hayotda xotin-qizlarga nisbatan yurgizilayotgan barcha adolatsizliklar, xo'rliklar, zo'rliklar, ikkinchi tomondan esa, ma'rifatparvar jadidlarning faoliyatlari ularning ruhan uyg'onishlariga sabab bo'ldi. Shuning uchun ham, sovetlar hukumatining tarkib topishi xotin-qizlar hayotiga yangicha uslubda shiddat bilan kirib keldi va ularning takdirida tub burilish yasadi. An'anaviy jamiyat tufayli ijtimoiy hayotdan yiroq bo'lgan o'zbek xotin-qizlari istilochilarning asl niyat va maqsadlarini anglamagan holda, sovetlarning yolg'on va soxta g'oyalariga ishonib, ulardan madad va najot kutdilar. 20-yillar ijtimoiy-siyosiy hayotida xotin-qizlarni «ozod qilish muammosi» alohida o'rin egallagan. Shuning uchun tub millat xotin-qizlarini «ozod qilish» va ularni har jabhada erkaklar bilan «ten ghuquqliligi n i ta'minlash"ning butun bir tizimi ishlab chiqiddi. Ya'ni xotin-qizlar faoliyatiga ta'sir etishning mafkuraviy va

ishlab chiqarish omillari tashkil etildi. Bu esa, sovetlarning quyidagi yoʻnalishlarda olib borilgan tadbirlarida oʻz ifodasini topdi:

— mitinglar, 8 mart bayramini «tantanali» oʻtkazish, moddiy va maʼnaviy ragʻbatlantirish orqali olib borilgan tashviqot-targʻibot ishlari;

— syezdlar, plenumlar, konferensiyalar, ommaviy majlislar. slyot va qurultoylar orqali olib borilgan tashkiliy-tarbiyaviy ishlar;

— turli xildagi musobaqalar, maxsus tashkil etilgan brigada va zvenolar, mehnat unumdorligini sunʼiy jadallashtirish maqsadida shaxsiy oʻrnak koʻrsatib, namuna boʻlish uchun maxsus tashkil etilgan «ijtimoiy buksirlar», zarbdor ish kunlari, haftaliklar, oyliklar, tanlovlar, hasharlar oʻtkazish bilan bogʻliq ijtimoiy-amaliy ishlar;

— maxsus tashkil etilgan tayyorlov va malaka oshirish kurslari, turli toʻgaraklar, tashviqot punktlari, shior va daʼvatlar aks etgan ijtimoiy-siyosiy va texnikaviy ishlar shular jumlasidandir.

Oʻtkazilgan tadbirlarning negizida xotin-qizlar mehnatidan imkoni boricha koʻproq va «unumli» foydalanish maqsadi yashiringan boʻlib, bu tadbirlar ayollarning oilani emas, balki jamiyatda erkaklar bilan teng asosda faol ishtirok etishni istaydigan butunlay yangi avlodini tarbiyalash uchun xizmat qildi.

Avvalo, xotin-qizlarni «ozod qilish muammosi» ular oʻrtasida savodsizlikni tugatish hamda ijtimoiy hayotga jalb etish orqali hal etishga kirishildi. Shuning uchun tashkil etilgan xotin-qizlar boʻlimlari tomonidan ayollar orasida ularni ijtimoiy mehnatga jalb qilish, ular mehnatidan foydalanishning oʻziga xos mexanizmlari asosida targʻibottashviqot ishlari olib borildi. Ular tomonidan maʼrifiy-tarbiyaviy tusdagi turli tadbirlar uyushtirilib, savodsizlikni tugatish boʻyicha xotin-qizlar maktablari, onalar va bolalar uylari, tugʻruqxonalar, doyalik kurslari tashkil qilindi. Kurs bitiruvchilari akusher-kalar, maktabgacha taʼlim muassasalari rahbarlari, xotin-qizlar maktablari oʻqituvchilarini tayyorlash kurslariga jalb etildi. Bu ishlar negizida sovetlar manfaati yashiringan boʻlsa-da, ayollar manfaatlari maʼlum darajada himoya qilindi. 1921 yildan boshlab sovet hokimiyatining ayollar ahvolini oʻzgartirishga qaratilgan radikal choralari qatorida diniy toʻylar, qalin va koʻp xotirlilik taʼqiqlandi. Nikohga kirish yoshi qizlar uchun 9 yoshga oʻrniga 16, oʻgʻil bolalar uchun 16 yosh oʻrniga 18 yosh deb belgilandi. Ayni paytda, joylarda xotin-qizlar boʻlimlarini tashkil etish ishiga ham alohida eʼtibor berila boshlandi.

Mustabid tuzum o'zining siyosiy va iqtisodiy maqsadiga erishish uchun «shariatda belgilangan qonun-qoidalar xotin-qizlarning oiladagi huquqsizligini ta'minlashi»ni ro'kach qilib, «ko'pxotinlik va qalin olish bu dinning aybi», deb ko'rsatib, diniy e'tiqodni inkor etish, sovet oila-nikoh qonunchiligini targ'ib qilish maqsadida xotin-qizlar bo'limining maxsus vakilasi - huquqni himoya qiluvchi «xalq maslahatchilari» ning faoliyatidan keng foydalandi. 1923 yil dekabrda TASSR Adliya xalq komissarligi «Advokatura tarkibiga tub millat xotin-qizlarini jalb qilishni kengaytirish haqida» maxsus qaror qabul qildi. Xotin-qizlar bo'limining maxsus vakilasi ayollar huquqini himoya qiluvchi sifatida sudda ishtirok eta boshladi. Xalq sudining o'ziga xos maqsadi, vazifalari, ish shakllari va usullari tizimi mavjud bo'lib, huquq bo'yicha maslahatchi ayollar tayyorlash, huquqni targ'ib qilish, ochiq sudlar, maxsus huquq kunlari va soatlarini tashkil etish, majlislar o'tkazish shular jumlasiga kirgan. 1924 yil oxirida Toshkent va Samarqand viloyat xalq sudlarida 250 nafarga yaqin ayol-xalq maslahatchisi sifatida faoliyat yuritgan. Lekin ularning ko'pchiligi maxsus tayyorgarlik va yetarli malakaga ega emas edi. Shuning uchun VKP(b) MK O'rta Osiyo byurosi O'rta Osiyo huquqshunoslik kurslarida ta'lim olish uchun mahalliy millat vakillariga 20% o'rin ajratish haqida ko'rsatma ishlab chiqai. Unga ko'ra, tayyorlangan huquqshunos-maslahatchi ayollarga ularning o'z haq-huquqdarini anglatishdan ham ko'ra, ko'proq sotsialistik tuzum qonunlarini targ'ib etishdan ta'lim berilgan. 20-yillarning oxiriga kelib, o'tkazilgan «Hujum» harakati tufayli xotin-qizlar bo'limlari xuquqiy muassasa ro'lini ola boshladi. Natijada, «sud jarayonlarida xotin-qizlar bo'limi maxsus vakilasi ayollar huquqini himoya qiluvchi sifatida ishtirok» etib, «xalq maslahatchilari» maqomiga ega bo'ldi. Shuning uchun ham, «Hujum» harakati xotin-qizlarga nisbatan munosabatda ma'muriy-buyruqbozlik tizimining boshlanishiga olib keldi.

Bolsheviklar mahalliy millat xotin-qizlarini ijtimoiy siyosiy hayotga tortishda, ya'ni ularni sovetlar tarkibiga saylashda, komsomol va partiya saflariga jalb qilishda, shuningdek, markazning yagona millat g'oyasi asosida sharq ayollarini erkaklar bilan tenglashtirish siyosatini amalga oshirishda yevropa millatiga mansub ayollardan foydalandi. Ularning deyarli hammasi VKP(b) MKning ko'rsatmasi bilan Rossiyadan kelishgan edi. Bolsheviklar bu masaladagi o'z ulug'millatchilik qarashlarini quyidagicha niqobladilar: «Xotin-qizlar masalasini hal etishda, eng

muhimi, markaziy rayonlardan yuksak partiyaviylik, proletar internatsionalizmi ruhida tarbiyalangan kadrlarni yuborish bilan yordam ko'rsatildi»

Xotin-qizlar bo'limlari rahbarlarining asosan, rus millatiga mansubligi o'lkada yevropali aholi hukmronligini mustahkamladi. Bu sovet rahbarlari ulug'millatchilik siyosatining ifodasi edi. Ko'p o'tmay xotin-qizlarni erkaklar bilan «tenglashtirish» siyosatini amalga oshirishga qaratilgan harakatga mahalliy millat ayollari ham jalb qilindi. Respublikaning ijtimoiy-siyosiy hayotida mahalliy millatlar orasidan chiqqan, sovetlar sharoitida tayyorlangan yangi xotin-qizlar bo'limlari xodimlari paydo bo'lib, sovet hokimiyatining tarafdorlari sifatida faoliyat yuritdi.

Dastlabki yillarda sovetlar ayollar kuchidan keng foydalanish masalasiga ehtiyotkorlik bilan yondashganlar. Ayollarni ijtimoiy muhofaza qilish sifatida ishlab chiqarishning zararli, murakkab sohalariga ularni jalb qilish ta'qiqlangan. Lekin 20-yillarning oxiriga kelganda bu yondashuv keskin tarzda o'zgarib, ayollarni erkaklar bilan har jabhada «tenglashtirish» siyosati ustunlik qila boshlagan. Shundan so'ng, xotin-qizlar jamoatchilik, ijtimoiy-iqtisodiy sohadagi ishlarga tobora kengroq jalb etila boshlandi. Bunga sabab, 1925 yillarga kelib, sovetlar hukumatining moddiy-iqtisodiy bazasini mustahkamlash bosh masala qilib qo'yilishida edi. Shu maqsadda 1925 yil 15 fevradada SSSR MIQning «Sovet Sharqi mehnatkash xotin-qizlarining huquqlari va ularni oilaviy-maishiy, iqtisodiy sohalardagi tazyiqlarning barcha ko'rinishlariga qarshi kurash haqida» murojaatnomasi e'lon qilindi. Respublika sharoitida xotin-qizlarga munosabat masalasidagi keskin burilish O'zbekiston Kompartiyasining 1 syezdi (1925 yil, fevral) qabul qilgan «Xotin-qizlar o'rtasida ishlash to'g'risida»gi rezolyutsiyadan so'ng boshlandi.

Xulosa: XX asrning 20–30-yillarida Sovet hokimiyatining xotin-qizlar masalasiga oid siyosati tashqi jihatdan “ayollarni ozod etish”, “gender tenglikni ta'minlash” kabi shiorlar bilan bezatilgan bo'lsa-da, amalda bu siyosat mustamlakachilik maqsadlariga xizmat qilganini tarixiy manbalar yaqqol ko'rsatadi. Sovet tuzumi tomonidan olib borilgan “emansipatsiya” jarayoni mahalliy ayollarning ijtimoiy faolligini oshirish, savodsizlikni tugatish va huquqiy maqomini yuksaltirishda muayyan ijobiy natijalar bergan bo'lsa-da, ularning milliy, diniy va madaniy qadriyatlarini cheklash, o'zligidan begonalashtirish siyosati bilan chambarchas bog'liq bo'lgan.

O‘zbekiston misolida bu siyosatning ikki tomonlama mohiyati yaqqol ko‘zga tashlanadi: bir tomondan, ayollarning ta‘lim olishi, kasb-hunar egallashi, jamiyat hayotiga kirib borishiga sharoit yaratildi; ikkinchi tomondan esa, bu jarayon orqali sovet mafkurasini singdirish, mahalliy an‘analarni zaiflashtirish va xalqni ideologik nazorat ostida tutish maqsadi ko‘zlangan. Demak, sovet davrida xotin-qizlar masalasi shunchaki ijtimoiy islohot emas, balki siyosiy vosita sifatida ishlatilgan. Bugungi kunda bu tarixiy tajribani chuqur o‘rganish nafaqat o‘tmishdagi adolatsizliklarni tahlil qilish, balki milliy qadriyatlar, ayollar huquqlari va jamiyatdagi gender tenglik masalalariga yanada asosli, mustaqil yondashuvni shakllantirish uchun muhim ilmiy ahamiyat kasb etadi.

Qisqa qilib aytganda XX asrning 20–30-yillarida Sovet hokimiyatining xotin-qizlarga nisbatan olib borgan siyosati o‘z mohiyatiga ko‘ra murakkab, ziddiyatli va ikki tomonlama xarakterga ega bo‘lgan. Rasmiy tashviqotda “ayollarni ozod etish”, “gender tenglikni ta‘minlash”, “ayollarni ijtimoiy-siyosiy hayotga jalb etish” shiorlari ostida ilgari surilgan bu siyosat amalda mustamlakachilik manfaatlariga xizmat qilgan, mahalliy aholini, ayniqsa, xotin-qizlarni ideologik jihatdan bo‘ysundirish, ularning milliy o‘zligidan begonalashtirish maqsadini ko‘zlagan edi. Sovet hokimiyati “emansipatsiya” jarayonini mafkuraviy qurol sifatida qo‘llab, diniy e‘tiqod, an‘ana va urf-odatlariga qarshi kurashni “modernizatsiya” nomi bilan oqladi. Natijada, o‘zbek xotin-qizlarining ijtimoiy hayotdagi faolligi oshgani holda, ularning milliy qadriyatlarga sodiqligi susaytirildi, ma‘naviy mustaqilligi esa cheklab qo‘yildi. Shu bilan birga, sovet siyosati ayollarni ishlab chiqarish jarayoniga keng jalb etish orqali iqtisodiy manfaatlarini ham ko‘zlagan. Mintaqada ishchi kuchi yetishmovchiligi sharoitida ayollar mehnat resursi sifatida ko‘rilgan, ularning siyosiy va ma‘naviy ozodligi esa ikkinchi darajali masalaga aylantirilgan. “Teng huquqlilik” shiori ostida aslida ularning mehnatidan arzon ishchi kuchi sifatida foydalanish, sovet iqtisodiy tizimini mustahkamlash maqsadi yotgan edi. Shu tariqa, sovet hokimiyatining ayollar masalasiga oid siyosati tashqi tomondan ijtimoiy adolat va tenglik g‘oyalari asoslangandek ko‘rinsa-da, amalda u mafkuraviy va siyosiy nazorat vositasiga aylandi.

Biroq tarixiy jarayonni faqat salbiy jihatdan baholash to‘liq tasavvur bermaydi. Sovet davri islohotlari natijasida xotin-qizlar o‘rtasida savodxonlik darajasi oshdi, ta‘lim va tibbiyot tizimida ayollar ishtiroki kengaydi, ularning ijtimoiy mavqeida

muayyan o'zgarishlar yuz berdi. Bu esa keyingi davrlarda ayollarning jamiyatda faol o'rin egallashiga, ularning siyosiy va madaniy hayotda o'z ovozigaga ega bo'lishiga zamin yaratdi. Ammo bu o'zgarishlar tabiiy tarixiy taraqqiyot natijasi emas, balki sovet mafkurasining qat'iy nazorati ostida, ko'pincha majburiy yo'l bilan amalga oshirilgan edi. Demak, Sovet hokimiyatining xotin-qizlar siyosati o'zida qarama-qarshi ikki yo'nalishni mujassam etgan: bir tomondan, ayollarni jamiyat hayotiga jalb etish orqali ularning huquqiy va ijtimoiy maqomini nisbatan yaxshilagan bo'lsa, ikkinchi tomondan, bu jarayonni ideologik vosita sifatida qo'llab, mahalliy xalqlarning milliy qadriyatlarini yemirish, ularni markaz siyosatiga bo'ysundirish yo'lida ishlatgan. Bugungi kunda ushbu davr tajribasini tarixiy xolislik bilan o'rganish, sovet davrining "ayollarni ozod etish" siyosati ortidagi asl maqsad va oqibatlarni chuqur tahlil qilish muhim ilmiy vazifalardan biridir. Chunki bu masala nafaqat o'tgan asr tarixining muhim qismi, balki bugungi O'zbekiston jamiyatida gender tenglik, ayollar huquqlari va milliy qadriyatlar uyg'unligini ta'minlash borasida ham muhim saboqlarga ega. Sovet davri tajribasini tanqidiy o'rganish, hozirgi mustaqil O'zbekiston sharoitida xotin-qizlarning ijtimoiy-siyosiy faolligini milliy qadriyatlar bilan uyg'unlashtirgan holda rivojlantirish uchun zarur tarixiy asos va saboq bo'lib xizmat qiladi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Lutfiya Qodirova. "O'z SSR da faoliyat yuritgan rahbar ayollar" (managrafiya)
2. Nilufar Jo'rayeva. (2013) O'zbekistonda xotin qizlarga munosabat. (o'quv qo'llanma)
3. Ogonyok. 1959
4. Qodir Fozilxo'jayev, Filyura Zvedinyuk. "Jahon Obidova"
5. Abdullayev, B. (2012). *O'zbekiston tarixi: XX asr ijtimoiy-siyosiy jarayonlari*. Toshkent: Sharq.
6. Jalolova, G. (2010). *O'zbekiston xotin-qizlari ijtimoiy hayotda (1917–1991 yillar)*. Toshkent: Fan.
7. Kamp, M. (2006). *The new woman in Uzbekistan: Islam, modernity, and unveiling under communism*. Seattle, WA: University of Washington Press.

8. Karimov, I. A. (2008). *Yuksak ma'naviyat — yengilmas kuch*. Toshkent: Ma'naviyat.
9. Keller, S. (2001). *To Moscow, not Mecca: The Soviet campaign against Islam in Central Asia, 1917–1941*. Westport, CT: Praeger Publishers.
10. Muminov, A. (2015). *Sovet davrida gender siyosati va uning oqibatlari*. Toshkent: Fan.
11. Northrop, D. (2004). *Veiled empire: Gender and power in Stalinist Central Asia*. Ithaca, NY: Cornell University Press.
12. Qodirova, N. (2020). *O'zbekiston xotin-qizlar harakati: shakllanish va rivojlanish bosqichlari*. Toshkent: Fan.
13. Rashidova, E. (2018). *Ayollar huquqlari va gender tenglik masalalari: tarixda va bugun*. Toshkent: Adolat.
14. Saidov, A. X. (2014). *O'zbekiston davlatchiligi tarixi*. Toshkent: Universitet.
15. To'laganova, S. (2019). *O'zbekiston xotin-qizlari tarix sahifalarida*. Toshkent: O'zbekiston.
16. O'zbekiston Respublikasi Markaziy Davlat Arxivi (O'R MDA). (n.d.). Fond 837, opis 4, delo 56.